



ISSN 3030-3907

2024/6
VOLUME 1

***DEVELOPMENT
OF SCIENCE
ILMIY JURNAL***



Dekabr



Development of science

Ilmiy jurnal

2024/6 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Dekabr 2024

ISSN 3030-3907



31	Sut mahsulotlari xavfsizligini tadqiq qilish <i>Maxmudova Z.K. Bafoyeva G.N.</i>	237
32	Teri va poyabzal sanoatining kollagenli chiqindilarini qayta ishlash <i>Uzoqova Laylo Polvonovna</i>	243
33	The lion, the witch, and the wardrobe asarida aslan zoosemizmi. <i>Toirova Umida Sobirovna</i>	247
34	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matnli masalalarni o'rgatishda 5lister metodidan foydalanishning ahamiyati <i>Xolmamatova Madina Chori qizi</i>	251
35	Poli-2-metil-5-vinilpiridin bilan selluloza diatsetat aralashmasida atsetonni diffuziyasi <i>Atoev Extiyor Xudoyorovich</i>	257
36	O'zbekiston respublikasida mahalliy xomashyolar va sanoat chiqindilari asosida yengil g'ovak to'ldiruvchi olish texnologiyasi <i>Rajabova Munisa Shukur qizi</i>	265
37	Unli qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda yangi ishlanmalarning o'rni <i>Tursunova D.X. Maxmudov R.A.</i>	275
38	Non mahsulotlari yangi turlarini ishlab chiqarishni takomillashtirish <i>Tursunova D.X. Maxmudov R.A.</i>	281
39	Non mahsulotlarini yog'sizlantirilgan kunjut uni bilan boyitish darajasini baholash <i>Tursunova D.X. Maxmudov R.A.</i>	291
40	Модификация ячеистых неавтоклавного газоблоков с улучшенными характеристиками и экономическое эффективность <i>Пулатова Дилрабо Гайратовна</i>	299
41	Ахборот технологияларидан таълим тизимида фойдаланиш асослари <i>Базар Султанов, Заир Зуфаров</i>	303
42	Mahalliy hom ashyo asosida ishlab chiqilgan natriy silikat pentagidrat ($\text{Na}_2\text{SiO}_3 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$) infraqizil spektri tahlili <i>Raxmatov Marat Salimovich</i>	309



THE LION, THE WITCH, AND THE WARDROBE ASARIDA ASLAN ZOOSEMIZMI.

Toirova Umida Sobirovna

BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Telefon =99890 614 01 67

umidatoirova1981@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Aslan zoosemizmining o'ziga xos xususiyatlari, qahramonning jasurligi, aql-zakovatligi, adolatparvarligi insonning xarakteridan hayvon xarakteriga ko'chishi, zoosemizm orqali ifodalanadi. Aslanning ya'ni sherning g'ayrioddiy va noyob xislatlari misollar bilan tahlilga tortilgan va mazmun mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: zoosemizm, zoonim, zoometafora, zoosemantika, konnotativ va denotativ.

Аннотация: В статье раскрываются особенности зоосемизма. Зоосемизм Аслана переносятся храбрость, ум и справедливость героя из человеческого характера в животный характер. На примерах анализируются необычные и уникальные качества Аслана, то есть льва, и раскрывается суть содержания.

Ключевые слова: Зоосемизм, зооним, зоометафора, зоосемантика, коннотатив и денотатив

Abstract: The article describes the characteristics of Aslan's zoosemy, the hero's bravery, intelligence, and justice is transferred from a human character to an animal character through zoosemy. The unusual and unique qualities of Aslan, the essence of the content are analyzed and revealed with examples.

Key words: Zoosemy, zoonym, zoometaphor, zoosemantics, connotative and denotative

Zoosemiya so'zi yunoncha *zoo* – hayvon va *sema* – ma'no so'zlaridan kelib chiqib, “hayvonlar ma'nosi” degan tushunchani anglatadi. I.L.Lasota zoosemiya atamasi tor manoda hayvonot olami bilan mavzu jihatdan bog'liq leksik birikmalarni ifodalashda qo'llanilishini ta'kidlaydi. M.Basaj ta'kidlanganidek, *zoosemiya* motivi zamirida psixologik parallelizm yotadi, ya'ni inson va uni o'rab turgan atrof-muhit o'rtasida turli o'xshatishlar mavjud.

Zoosemiya nazariyasi J. Lakoff va M.Turner tomonidan *Achilles is a lion* misoli yordamida sharhlanib, Axilles metaforasi orqali birinchi navbatda inson jasorati sherga o'xshatilsa, ikkinchi holatda hayvon instinktiga asoslangan inson xarakteri talqin qilinadi. Sherlar instinktiv xulq-atvorining jasorat sifatida qabul qilishini, ushbu xususiyatni Axillesga nisbatan ishlatilishi, sher va uning “jasorati” o'rtasidagi munosabatni Axilles va uning jasorati o'rtasidagi munosabatga yo'naltirilishi bir-biriga bevosita bog'liq. T.V.Xaxalkina *zoonimlar*, *animalizmlar*, zoologik leksikani



hayvonlarning bevosita nominativ nomini bildiruvchi ekvivalent atamalar, deya uqtirsa-da, metafora sifatida ishlatiladigan zoosemizmlarni kishilarni tavsiflovchi ma'lum bir konnotativ ma'noga ega bo'lgan zoomorfizmlarni chegaralaydi, degan fikrni keltiradi. [1]

Badiiy adabiyotda inson xarakter va xususiytlari hayvon nomlari bilan ifodalanadi. Zoosemizm obrazlarni tasvirlashda zoonim, zoometafora, animalism kabi sinonimik birliklarda ham ishlatiladi.

O.V. Rayevskaya zoosemizmni hayvon laqabi sifatida ta'riflab, hayvon nomlari ko'pincha inson xususiyatlarini belgilash uchun ishlatiladi, degan munosabat bildiradi. Z. Koveksesning so'zlariga ko'ra, inson xatti-harakatlarining aksariyati, aslida hayvonlarning xatti-harakati nuqtai nazaridan metaforik tarzda tushunilganga o'xshaydi. [2]

Zoosemantik so'zlar denotativ va konnotativ ma'noga ega:

1. It – to'rt oyoqli va dumli hayvon, ko'pincha uy hayvonlari sifatida boqiladi yoki ov qilish, binolarni qo'riqlashga o'rgatiladi.
2. Eshak – oyoqlari kalta va quloqlari uzun hayvon.
3. Maymun – daraxtlarga chiqib yuruvchi, issiq mamlakatlarda yashovchi uzun dumli hayvon.
4. Cho'chqa – pushti qora yoki jigarrang terili, kalta oyoqli, keng burunli hayvon singari ta'riflarda hayvon zoosemiyasi denotativ ma'noda qo'llanilgan.

A gay dog – shijoatli va g'ayratli kishi, *donkey* – ahmoq, *monkey* – buzuq bola, *pig* – ochko'z, odobsiz singari konnotativ ma'noli zoosemizmlarni ham kuzatish mumkin. [3]

Zoometaforalar ramziy ma'nolar toifasiga kiradi, chunki ular orqali narsa-predmet ramziy ifodalanadi. Zoosemantik so'zlar yuqori hissiyotga egaligi sababli, ular ham baholovchi, ham so'zlashuv, ham adabiy so'zlar turkumiga kiritilgan uslubiy ma'nolarga ega. Tillararo munosabatlar tilning sotsiolingvistik jihatini bilan bog'liq. Shunday ekan, zoosemizm bu yo'nalishda qiziqarli ma'lumotlarni bera oladi, lug'atning tematik qatlamlaridan biri bo'lib, ular bir tildan boshqa tilga ko'chiriladi. Ular osongina moslashadi. Hayvonlar real so'zlardir va ular nomlari orqali qabul qilinadi. Ko'p tillarda zoosemiya bir xil. Madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida, zoonimiya, she'riyat va nasrda ham qo'llanila boshlangan.

Ingliz va o'zbek tili zoometaforalari o'zaro solishtirilganda, quyidagi so'zlar ikkala tilda ham bir xil ma'noga egaligi aniqlanadi: to'tiqush – ko'p gapiradigan kishi, tulki – aqlli inson (ayyor), cho'chqa – ochko'z, sher – mard.

Keltirilgan misollar aslan yoki sher zoosemizmining turli xil mazmunlarda aks etilishini yoritib beradi.



“Who is Aslan?” asked Susan. “Aslan?” said Mr Beaver. “Why, don’t you know? He’s the King. He’s the Lord of the whole wood, but not often here, you understand. Never in my time or my father’s time. But the word has reached us that he has come back. He is in Narnia at this moment. He’ll settle the White Queen all right. It is he, not you, that will save Mr Tumnus.” [4]

Yuqorida keltirilgan parchada Aslanning o’rmon podshohi ekanligi, uning shoxligi azaldan bo’lganligi haqida alohida ta’kidlanib, uning Narniyaga qaytishi xalq uchun katta mukofot hisoblanadi. Chunki Aslan adolatni o’rnatish maqsadida, nohaqliklarga chek qo’yish kelgan edi. Yozuvchi C.S. Lyuis Aslanning obrazida metaforani qo’llab, Arslan o’zini barcha odamlari uchun qurbon qilgan. Aslanning Narniya olamidagi qobiliyatlari juda ko’p bo’lib, u shubhasiz juda g’ayritabiiy kuchlarga ega edi va o’zining tashqi qiyofasini o’zgartirishi, qo’zichoq, mushuk va albatros kabi hayvonlarning boshqa tasvirlarida namoyon bo’lardi. Aslan juda olijanob va jasur xarakter bo’lib, oxir-oqibat Narniyaning farovonligi uchun o’zini qurbon qiladi Bunday hamma xursand bo’lgan. Aslan timsoli adolatlik tartibga solish mazmunida tasvirlangan.

I shall feel rather nervous about meeting a lion.” “That you will, dearie, and no mistake,” said Mrs Beaver; “if there’s anyone who can appear before Aslan without their knees knocking, they’re either braver than most or else just silly.” “Then he isn’t safe?” said Lucy. “Safe?” said Mr Beaver; “don’t you hear what Mrs Beaver tells you? Who said anything about safe? ‘Course he isn’t safe. But he’s good. He’s the King, I tell you.” “I’m longing to see him,” said Peter, “even if I do feel frightened when it comes to the point.” “That’s right, Son of Adam,” said Mr Beaver, bringing his paw down on the table with a crash that made all the cups and saucers rattle. “And so you shall. Word has been sent that you are to meet him, tomorrow if you can, at the Stone Table.” “Where’s that?” said Lucy. “I’ll show you,” said Mr Beaver. “It’s down the river, a good step from here. I’ll take you to it!” “But meanwhile what about poor Mr Tumnus?” said Lucy. “The quickest way you can help him is by going to meet Aslan,” said Mr Beaver, “once he’s with us, then we can begin doing things. [5]

Aslan - diniy allegorik timsol bo’lib, romanda Arslon Aslan xuddi odam kabi hayot kechiradi, lekin bu allegoriyadan foydalanadi. Aslan - Narniyaning ezguligi va adolatini ifodalovchi olijanob va mehribon sher hisoblanadi. Pevensi bolalari birinchi marta uning ismini eshitganlarida, ular darhol tushuna olmaydigan kuchli his-tuyg’ularni his qilishadi. Piter, Syuzan va Lyusi tushunib bo’lmaydigan zavqni boshdan kechirishadi. Aslanning ismini eshitib, ko’pchilik undan qo’rqishini tasvirlaydi. Aslan Narniya qiroli va dengiz ustidagi imperatorning o’g’li bo’lganligi uchun o’z davlatini yovuzliklardan himoya qilish, adolatsizlikka qarshi kurashish uchun keladi. Aslan qo’rqinchli bo’sa-da, shubhasiz xayrixoh va mehribon. Aslanning qudrati tengsiz,



yaxshiligi esa cheksiz. Aslan jasur va olijanob. U Edmundning qaytib kelishini bilmasligiga qaramay, uni qutqarish uchun o'zini qurbon qiladi. U bolalar bilan yumshoq munosabatda bo'lsa-da, jangda shiddatli bo'lishi mumkin. U Narniyani uning zulmidan qutqarish uchun Oq jodugarga qarshi kurashadi. Aslan timsoli mehribon, qutqaruvchi, himoyachi va yaxshilik ulashuvchi sher misolida gavdalanadi.

Demak Aslan yoki sher zoosemizni orqali yozuvchi insonning oliyjanob ne'matlaridan bo'lgan adolatparvarlik, haqiqatgo'ylik, rostgo'ylik, ezgulik keltiruvchi, mehribon siymo sifatida aks ettirilib, aslan zoosemizming o'ziga xos jihatlarini ochib berishda alohida o'rin egallaydi. Umuman olganda badiiy adabiyotda va asarlarni tasvirlashda zoosemizmning tutgan o'rni beqiyos bo'lib, qahramonlarning xususiyatlarini tasvirlashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kiełtyka, R. and G.A. Kleparski. "The ups and downs of the Great Chain of Being: The case of canine zoosemy
2. in the history of English. –Slovakia: SKASE Journal of Theoretical Linguistics 2, 2005. –P. 22
3. https://www.samizdat.qc.ca/arts/lit/PDFs/LionWitchWardrobe_CSL.pdf
4. Hornby A.S. Oxford Advanced Dictionary. – USA: Oxford University Press, 2000. – P.54.
5. Toirova, U. (2022). Analysing of Cat Zoosemy in the Uzbek and English Works. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 14(14). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6804
6. Toirova Umida Sobirovna. (2023). THE DESCRIPTION OF LION ZOOSEMY IN UZBEK'S NOVELS. American Journal of Research in



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MATNLI MASALALARNI O'RGATISHDA KLASTER METODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xolmamatova Madina Chori qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(Boshlang'ich ta'lim) 2-bosqich magistranti

e-mail: _madinaxolmamatova94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnli masalani yechish, uning bola ahamiyatidagi ahamiyati haqida so'z boradi. Klaster metodi haqida tushuncha va matnli masalani yechishda klaster metodidan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, motivatsiya, masalani yechish, amaliy ko'nikma, tizimli fikrlash, masalaning asosiy qismlari

Аннотация: В данной статье говорится о решении текстовой задачи для учащихся начальных классов и ее значении для детей. Показано понимание кластерного метода и способы использования кластерного метода при решении текстовых задач.

Ключевые слова: критическое мышление, мотивация, решение проблем, практические навыки, системное мышление, основные части проблемы.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, bugungi zamon taraqqiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bizning mamlakatimizda ham yangicha islohotlar avj olmoqda. Hamma sohada tubdan o'zgarishlar qilinmoqda. Shu bilan birga, eng avvalo ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor ham kuchayib bormoqda ayniqsa, hamma fanlar qatori matematika faniga va u fanni qay yo'sinda o'qitishga, darsga qanday yondashish kerakligiga, o'quvchilarni matematika faniga bolgan qiziqishi va ishtiyoqini oshirishga, matematika darslarini sifatli tashkil etishga bo'lgan e'tibor kundan kunga muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki matematika hamma fanlarga asos hisoblanadi. Matematikadan chuqur bilimga ega bo'lgan inson hayotda qoqilmaydi va o'z o'rniga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda matematika faniga ijodiy yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Matematika fani boshlang'ich sinflarda juda muhim o'ringa ega.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashish, asosli xulosa chiqara olish har bir o'qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biri. Bu vazifalarni amalga oshirishda matnli masalalarning o'rni katta. Boshlang'ich sinf matematika kursida qiziqarli mantiqiy topshiriqlardan